



FAKHRIDDIN AL-RAZI'S ONTOLOGICAL VIEWS ON NATURAL EXISTENCE, ITS STRUCTURE, AND FORMS

Zokirjon Ne'matov

Master's student

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Existence, Metaphysics, Substance, Accident, Kalam, Ash'arism, Hylomorphism, Prime matter, Matter, Body, Form, Shape.

Received: 23.03.25

Accepted: 25.03.25

Published: 27.03.25

Abstract: This article analyzes Fakhr al-Din al-Razi's ontological concept from a philosophical-historical perspective. Particular attention is given to the thoughts of Ibn Sina and Aristotle on existence as the ideological foundation of Razi's ontological views. Additionally, the essence of the ontological categories proposed by Razi is explained, emphasizing their manifestation characteristics.

ROZIY ONTOLOGIK QARASHLARIDA TABIIY BORLIQ, UNING TUZILMASI VA SHAKLLARINING TALQINI

Zokirjon Ne'matov

Magistratura talabasi

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Borliq, Metafizika, Javhar, Oraz, Kalam, Ash'ariylik, gilomorfizm, hayula, modda, jism, sur'at, shakl.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Fahriddin ar-Roziyning ontologik konsepsiyasi, falsafiy-tarixiy nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Bunda, Roziy ontologik qarashlarining shakllanishining g'oyaviy asosi sifatida Ibn Sino va Aristotel borliq haqidagi mulohazalariga alohida diqqat qaratiladi. Shuningdek, Roziy tomonidan ilgari surilgan ontologik kategoriyalar mohiyati ochib berilgan holda ularning namoyon bo'lish xususiyatlari tadqiqiga urg'u beriladi.

ОНТОЛОГИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ФАХРЕДДИНА АР-РАЗИ НА ПРИРОДНОЕ БЫТИЕ, ЕГО СТРУКТУРУ И ФОРМЫ

Закирджон Нетьматов

студент магистратуры

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Бытие, Метафизика, Субстанция, Акциденция, Калам, Ашаризм, Гилеморфизм, Первая материя, Материя, Тело, Форма, Фигура.	Аннотация: В данной статье анализируется онтологическая концепция Фахриддина ар-Рази с философско-исторической точки зрения. Особое внимание уделяется мыслям Ибн Сины и Аристотеля о бытии как идейной основе онтологических взглядов Рази. Кроме того, раскрывается сущность онтологических категорий, предложенных Рази, с акцентом на особенности их проявления.
--	---

Kirish va mavzuning dolzarbligi. Islom faylasuflarining bahs munozaralarida tabiat, tabiiy borliq tushunchasi, uning ontologik tizim o'laroq tuzilmasi masalalari o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ayni masalalarga oid o'z tahlillarini ilgari surgan Fahriddin Ar-Roziy *al-Matalibul Aliyya*, *Muhassal*, *al-Mulahhas*, *al-Mabahisul- mashriqqiyya*, *Sharhul Uyunul-hikma*, *Sharhul Isharot* kabi asarlarida alohida yondoshadi.

Roziyning bir yaxlit tizim shaklida ko'rib chiqadigan Ontologik konsepsiyasi mutakallimlar tomonidan qo'llanilgan usullardan foydalanishni ham nazarda tutadi. Buning sabablaridan biri shundaki, metafizik borliqga oid hukmlar, xulosalar dastlab fizik olamdagi asoslarga tayangan holda amalga oshirilishi va fizik olamning Xudoga nisbati mavzulari moddiy borliq haqida fikr yuritishni zaruriyatga aylantiradi. Bundan tashqari Fahriddin ar-Roziy yashagan davr XII-XIII asrlar muhitidan kelib chiqib Islom ilohiyotshunoslari va faylasuflar o'rtasidagi qizg'in bahs munozaralar ham ayni mavzuga chuqurroq e'tibor qaratish lozimligini talab etdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Fahriddin Roziyning ontologik konsepsiyasi Ayman Shihadehning "From al-Gazali to al-Razi: 6th/12th Century Developments in Muslim Philosophical Theology" nomli Tariq Jafarning "Fahr al-Din al-Razi d.606/1210): Philosopher and Theologian an Exegete (Yale University 2005) nomli A.Djavad Falaturining "Fakhr al-Din al-Razi's Critical Logic" Eshref Altashning "Fahreddin er-Razi'nin Ibn Sina yorumi ve elestirisi" nomli M.Farid Shahranning "A Survey on Fakhr al-Din al-Razi's Works on Logic and Their Influence on Kalam" izlanishlarida maxsus tadqiq etilgan.

O'zbek olimlaridan M.N.Boltayev, N.Naimovlar tadqiqotlarida Fahriddin Roziyning ontologik qarashlari falsafiy nuqtai-nazardan o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

Roziy o'zining *al-Matalibul Aliyya* asarida Ontologik masalaga yondashuvini Borliqning qanday qismlardan tashkil topganini tahlil etishdan boshlaydi. Unga ko'ra Borliq avvalo abadiy borliq(Xudo) va abadiy bo'lmagan borliq qismlariga ajratadi. Bundan tashqari Roziyning mazkur fikri Ibn Sino orqali o'zlashtirilgan Farobiyning *vojib al-vujud*, (zaruriy borliq, Xudo) mumkin al-vujud(imkoniy borliq) konseptsiyaga ham tayanadi. Islom ilohiyotshunosligi va falsafasida Borliq yoki Olam atamasi Xudodan boshqa mavjudlikka nisbatan qo'llanilgan. Fahriddin ar-Roziy Olamning *muhtasir* (o'tkinchi) ekanligini ta'kidlab *al-Matalibul Aliyya* kitobida Borliq tushunchasini Qur'on oyatlariga tayangan mantiqiy sillogizmlar asosida tavsiflashga harakat qilgan. Roziyga ko'ra Olam tushunchasi ma'lum muayyan shakllarga ega bo'ladi.

Borliq kategorik tizim sifatida esa imkoniy borliq yoki fazoviy borlik (*mutahayyiz*) yoki unsur(*hol*)lar ko'rinishida bo'ladi. Agar fazoviy borliqlar bo'lina oladigan holda bo'lsa jism, bo'lina olmaydigan holda bo'lsa *javhar* deb nomlanadi. Unsurlar (*hol*) esa jism yoki *javhar* bilan birga kelib *oraz* deb nomlanadi.

Roziy *Sharh ul-isharot* asarida mavzuni davom ettirib jismni tashkil etuvchi ikki narsadan biri tabiiy jism deya sifatlanuvchi va o'zida uch burchaklar kesishmasidan hosil bo'lish imkoniyatiga ega bo'lgan Javhar va ikkinchisi g'oyaviy deya sifatlanuvchi va uch o'lchamli Javhargacha boshqa xususiyatlar yuklovchi Oraz deb ta'kidlaydi. Jismning uch o'lchamliligi zaruriylik emas imkoniylik deya ta'riflanadi. Roziy bu xususiyatni mum misolida tushuntirib mumni biror boshqa shaklga keltirish uning tarkibidagi moddiy miqdorni o'zgartirmasligi lekin o'lchamlari o'zgarishini aytib o'tadi. Bu jihatdan Jism o'lchamlari chegara sifatida emas shakl sifatida qabul qilinadi.

Javhar o'z o'rnida orazlar tashuvchisi hisoblanadi, ya'ni orazlar faqat jism bilan birga kelgandagina ko'rinish kasb etadi. Javhar tushunchasini Ibn Sino *Risalat ul-hudud* asarida qisqacha o'z zoti bilan mavjud bo'la oladigan borliq deya ta'riflaydi. Al-Kindiy esa *Alhudud val Rusm* asarida uni javhar - o'zi mavjud bo'la oladigan orazlar tashuvchisidir deb ta'riflaydi.

Fahriddin Roziy asarlarida Javhar farqli nuqtalarda farqli nomlar bilan ataladi Masalan bir makondan joy olsa *sur'at* (shakl), uning o'zi makon vazifasida kelsa *hayula*, ham *sur'at* ham *hayula*dan iborat bo'lsa *jism* deb ataladi.[1] Agar javhar *hayula*, *sur'at*, *jism* bo'lmasa unda jismga harakat va irodaviy boshqaruv tomonidan bog'liqligi sababli *nafs* hisoblanib, agar jism bilan aloqasi bo'lmasa aql deb atalishini ta'kidlaydi. Shunday qilib javhar o'z tarkibiga *sur'at*, *hayula*, *jism*, *nafs*, va *aql*ni birlashtirgan jinsdir. [2]

Oraz atamasiga esa faylasuf va mutakallimlar bir necha ta'riflar berib o'tganlar. Jumladan Ibn Sino "Risolutul Hudud" asarida Oraz so'zi makonda mavjud bo'ladigan barcha borliklarga nisbatan qo'llanilishi, uni tashib yuriladigan, doimiy qolmaydigan, narsaning o'z tabiatidan tashqarida bo'lgan va unga yuklatilgan borliqqa nisbatan ishlatilishini ta'kidlagan. [3] G'azzoliy ham o'zining *Me'yar ul-ulum* asarida Ibn Sinoning tariflarini takrorlaydi. Al-Xorazmiy esa *Mafatiyh ul-ulum* kitobida Oraz bu narsani boshqa narsadan zotida bo'lmagan xususiyat orqali masalan: oq va qora, issiq va sovuq kabi ajratib turishini yozib o'tgan.

Roziy fikricha Oraz biror narsaga yuklanadigan borlik(xususiyat) bo'lib, u narsaning tarkibiy qismi hisoblanmaydi, u narsada muqim qolmaydi. Oraz bu narsaning yakka holdagi xususiyati bo'lmay umumiylik kasb etadi. Xuddi bir jins a'zosi hisoblanuvchi turlardagi umumiy sifat yoki bir tur a'zosi hisoblanuvchi yakkalikdagi umumiy sifat kabi Oraz ham yakkalikka emas umumiylikka xos hisoblanadi.[4]

Shuningdek Orazni tur sifatida ham tushunmaslik zarur. Oraz narsaning tarkibiy qismi hisoblanmaydi degan ta'rif aynan shuni anglatadiki, tur jins kategoriyasining qismini tashkil etgani kabi turlarning umumiy xususiyatini o'zida jamlagan orazni ham jinsning tarkibidagi qism deb o'ylamaslik kerak. [5]

Islom olamida Borliq muammosi bo'yicha bahs-munozaralarning asosiy maqsadi metafizik olam tizimli tartiboti, Allohning borligi, zoti, sifatleri, mo'jizalari kabi mavzular bilan bilvosita yoki bevosita bog'liqdir. Bundan tashqari islom ilohiyotida bo'lib o'tgan bahslarning sof fizika ilmidan ko'ra ko'proq Allohning borligini isbotlashga qaratilgan apologetik xususiyat kasb etishini kuzatish mumkin.

Roziy jismlarning tabiati bir xil bo'ladi deb hisoblovchi faylasuflar qarashlariga qarshi chiqib bu g'oyani shubxa ostiga oladi. Bundan kelib chiqqan xolda jismlarda rang, hid, orazlar va sifatlar emas balki jismlar mohiyatlari, haqiqatlari va javharlarining bir xil bo'lishligi g'oyasini ilgari suradi. [6]

Aniqrog'i unga ko'ra bir tur tarkibidagi narsalarning bir biriga o'xshashlik jihati ularning sifatleri emas balki mohiyati, haqiqatidir. Masalan, Oqqush turi tarkibiga kiruvchi jonzorlarning ma'lum sifatlariga ; oqlik, nafis qanoti borlik, ucha olishlik xususiyatlari uchun emas balki mohiyatida oqqushlik haqiqati mujassam bo'lgani uchungina oqqush deb ataymiz. Shu ma'noda oq bo'lmagan, ucha olmaydigan lekin mohiyati aynan oqqush bo'lgan jonivor ham shu nom bilan ataladi. Bu o'rinda Diogenning Platon akademiyasiga patlari yulingan tovuq olib kelganligi voqeasini eslab o'tish o'rinli bo'ladi.

Masalani chuqurroq yoritish uchun Roziy mohiyat tushunchasini kengroq yoritishga harakat qiladi. *Al-Mubahis al-Mashriqiyya* asarida yozishicha mohiyat ikki turli yoki murakkab yoki oddiy bo'ladi. Murakkab mohiyat bu birdan ortiq narsalar haqiqatini o'zida jamlaydi. Uning yuqoridagi

xususiyatlarini aks ettirmagan shakli esa oddiy mohiyat deyiladi. Murakkab mohiyatlar cheksiz qismlardan tarkib topgan deb tushunilmasligi uchun oddiy mohiyat mavjudligini alohida ta'kidlash lozim. Demak har qanday u xoh chekli, xoh cheksiz ko'plik, murakkablik tarkibida eng kichik birlik mavjuddir.

Roziyning bu kabi ontologik qarashlari maqsadlaridan biri Allohning mavjudligini isbotlash masalalariga yo'naltirilgan bo'lib ulardan quyidagilarni isbotlashda foydalangan:

a) Allohning foili-muhtor – yaratuvchi ekanligi. Bunga ko'ra Jismlar mohiyat jihatidan teng bo'lsalar ularni o'zlariga xos bir shaklda, hajmda va sifatda mavjud bo'lishlari uchun bir irodali yaratuvchi bo'lishi zarurdir. Boshqa jismlar haqiqat jihatidan bir-biriga teng bo'lganligi sababidan yaratuvchi tashqi kuch Allohdir. [7]

b) Allohning jism emasligi: Roziy jismlarning bir-biriga o'xshashligi mulohazasidan Allohning jism yoki javhar emasligi xulosasini chiqaradi. Jismlarning bir-biriga zoti va haqiqatlari o'xshashligini hisobga olgan holda agar borliqning yaratuvchisi bir jism bo'lsa uning ham zoti boshqa jismlarga o'xshash yoki teng bo'lish masalasi yuzaga chiqadi, bu esa ratsional jihatdan imkonsizdir. Chunki agar yaratuvchining zoti jismlar zotiga o'xshash yoki teng bo'lsa u holda jismlar uchun qabul qilingan hukm u yaratuvchi uchun ham chin bo'lib qoladi va bu yaratuvchining yaratilganligi, zamon o'tib yo'q bo'lishi va qismlarga ajralishi kabi masalalarni qabul qilishini taqozo etadi. Demak yaratuvchi ya'ni Alloh jism yoki javhar emasdir. [8]

c) Payg'ambarlar mo'jizalari; Jismlarning bir-biriga o'xshash zoti va haqiqatlari jihatidan Roziy Allohning mo'jizalarini inkor etganlarga qarshi chiqadi. Unga ko'ra yer yuzidagi jismlarning parchalanish va ajralish xususiyatlariga ega ekanliklari jism bo'lgan oy va quyoshning ham ikkiga ajralishi mumkinligini va demak mo'jizalarning ham imkoniy ekanligi xulosasi kelib chiqadi. [9]

d) Olamning yakuni va qiyomatning imkoniyli: Jismlarning bir-biriga o'xshash xususiyatlari borligiga ko'ra jismlarning yo'q bo'lishi, buzilishi, parchalanishi mumkin va Olam ham yo'q bo'lishi imkonidir. [10]

Faylasuflarning xususan Aristotel va Ibn Sinoning fikriga ko'ra jism *sur'at* (shakl) va *hayula*(modda)dan iborat bo'lsa mutakallimlarga ko'ra jism javhar va orazlardan tashkil topgandir. Mutakallimlar javharlarning o'zgarimas ekanligini ta'kidlagan holda o'zgaruvchi shakl va boshqa xususiyatlarni orazlar deb ataydilar. [11]

Roziy jismning shakl va moddadan iboratligi fikriga qarshi chiqib o'z mulohazalarini ilgari suradi. Unga ko'ra Faylasuflar nazarda tutgan modda(hayula)ning yakka o'zi bir borliq bo'la olmaydi. Agar uning o'zini bir borliq sifatida qabul qiladigan bo'lsak unda modda(hayula)ning o'zi shakl va orazlarni qabul qilishi kerak. Bu xolda esa moddaning o'zi bir jism bo'lib qoladi. Ikkinchidan jism modda va shakl kabi ikki qismdan iborat bo'lsa unda bu qismlar bir-biridan

alohida ikki mohiyat hisoblanadi va ularning o'z hajmlari bo'lishi kerak. Ikkita boshqa boshqa hajmga ega borliqning birikishi esa faylasuflar tomonidan qabul etilmaydi. [12] Bu tanqidlardan so'ng Roziy jism tuzilishiga oid o'z qarashlarini ilgari suradi.

Islom olamida Jism tuzilmasiga oid keng tarqalgan ikki qarashlardan biri Jismning modda va shakldan iboratligi g'oyasi hisoblangan Gilomorfizm va ikkinchisi Javhar va Oraz nazariyasiga tayangan atomizm nazariyasidir. Bunga ko'ra Jismlardagi javharlar bir xil bo'lib ularga xar hillik xususiyatini beradigan orazlar deb ataladi. Mumtoz Ashariylik Ontologik konsepsiyasiga ko'ra Javhar cheksiz miqdorda bo'lishi bilan birga yagona mustaqil birlik ham hisoblanadi. [13]

Roziyning mavzuga yondashuvi atroflicha bo'lib u har bir masalaga diqqat bilan e'tibor qaratish, nazariyada ilgari surilayotgan fikrga qarshi argument keltirish va har bir xulosaga tanqidiy yondashuv usulini qo'llashi uning jism tuzilmasi haqida qarashlari aniq bir to'xtamga kelgan-kelmaganligi muammosini yuzaga chiqaradi.

Xulosa. Roziy *Mabahis ul-mashriqiyya* asarida atomizm nazariyasiga qarshi bir necha dalillar keltirib tanqidiy yondoshsa ham u jism modda va shakldan iborat degan fikrni qabul qilgan deb ayta olmaymiz. Mavzuni *Sharhu Uyuni'l-hikma, Tafsir, al-Matalib ul -Aliyya* asarlarida davom ettirib fizik borliq muammolari bo'lgan zamon, harakat, o'zgarish, masofa kabi tushunchalarni atomizm nazariyasi tarkibida tushuntirganligi sababidan ham Roziyning bu yondashuvga moyilligini ko'rish mumkin.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek Roziy uchun Ontologik konsepsiya ishlab chiqish avvalo Allohning zot va sifatlarini tushuntirish yo'lida amalga oshirilgan. Unga ko'ra Allohning zot va sifatleri cheksizligi tufayli atomlarning ham cheksiz bo'lishi mumkin va bu faqat Allohning qudratidandir. Masalan rang, hid, maza kabi sifatarning tashuvchisi bo'lgan juda kichik hajmdagi atomlarning mavjudligi aslida Allohning qudrati va borligiga dalildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fahriddin Ar-Roziy, *Mabahisul mashriqiyya*, 236 b.
2. Fahriddin Ar-Roziy, *Mabahisul mashriqiyya* 237b.
3. Abdulamir Osim, *Mustalah ul-Falsafa* einda al-arab. 250s,
4. Fahriddin Ar-Roziy, *Mabahisul mashriqiyya*, 239 b.
5. Fahriddin Ar-Roziy, *Mabahisul mashriqiyya*, 239 b.
6. Fahriddin ar-Roziy, *al-Mulahhas* 97 b.
7. Fahriddin Ar-Roziy, *al-Matalib ul-Aliya* VI/189 b.
8. Fahriddin ar-Roziy, *Tafsir*, XXVII/152 b.
9. Fahriddin ar-Roziy, *Tafsir*, XIII/78; XXI/199 b.
10. Fahriddin ar-Roziy, *Tafsir*, XXXI/157 b.
11. Ferhat, Hani Nu'man, *Mesailu'l-Hilaf beyne Fahriddin er-Razi ve Nasiruddin et-Tusi*, Bayrut 1997, 237 b.
12. Fahriddin ar-Roziy, *Sharhu "Uyuni'l hikma"*, III/25-28b.
13. Richard Frank aptly observes, "The Ash'arite Ontology: I. Primary Entities," *Arabic Sciences and Philosophy* 9 [1999]: 163–201, esp. 199–200)